

CHET TILLARINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV METODNING SAMARADORLIGI

Tursunaliyeva Mahliyo Rustamjon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti 3-bosqich talabasi.

Telefon raqam: +998882302505

E-mail: tursunaliyevamahliyo2005@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20179874>

Annotatsiya: Hozirgi sun'iy intellekt va texnologiya qurilmalari jadal tarzda rivojlanayotgan davrda yashar ekanimiz til o'rganish hayotimizdagi eng muhim zaruriyatlardan biriga aylanib bormoqda. Qanchalik ko'p tillarni yaxshi o'zlashtirgan insonning hayot tarzi shunchalik darajada yengillashaveradi. Sababi kundalik hayotimizda o'z ona tilimizdan tashqari ko'plab til va madaniyatga oid bo'lgan terminlarga duch kelishimiz tabiiy holdir. Mazkur maqolada aynan chet tilining hayotimizdagi muhim ahamiyati va ayniqsa xorijiy tillarni o'rganishda eng samarali metodlardan biri bo'lgan kommunikativ metodning ustunliklari tahlil qilinadi. Aynan boshqa metodlardan farqli ravishda kommunikativ metod orqali o'rgatilgan tajriba darslarining samaradorligi va hozirgi zamonaviy davlat ta'lim standartlariga to'la javob bera olishi haqida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Texnologiya qurilmalari, zaruriyat, til va madaniyat, zamonaviylik, zamonaviy davlat ta'lim standartlari, termin, ko'p tillilik.

Аннотация: В современную эпоху стремительного развития искусственного интеллекта и технологических устройств изучение языков становится одной из важнейших потребностей нашей жизни. Чем большим количеством языков владеет человек, тем легче и удобнее становится его образ жизни. Это связано с тем, что в повседневной жизни мы постоянно сталкиваемся с различными терминами, связанными с языками и культурами, помимо нашего родного языка. В данной статье анализируется важная роль иностранных языков в нашей жизни, а также преимущества коммуникативного метода, который считается одним из наиболее эффективных подходов в изучении иностранных языков. В отличие от других методов обучения рассматривается эффективность практических занятий, проводимых с использованием коммуникативного подхода, а также его полное соответствие современным государственным образовательным стандартам.

Ключевые слова: технологические устройства, необходимость, язык и культура, современность, современные государственные образовательные стандарты, термин, многоязычие.

Abstract: As we live in a century which artificial intelligence and technological devices are rapidly developing, language learning is becoming one of the most important necessities in our lives. The more languages a person masters, the easier and more convenient their lifestyle becomes. This is because in our daily lives we naturally encounter numerous terms related to different languages and cultures besides our native language. This article analyzes the crucial role of foreign languages in our lives and especially the advantages of the communicative method, which is considered one of the most effective approaches in foreign language learning. Unlike other teaching methods, the effectiveness of experimental lessons conducted through the communicative approach and its full compliance with modern state educational standards are thoroughly examined.

Keywords: technological tools, necessity, language and culture, modernity, modern state educational standards, term, multilingualism.

KIRISH

Chet tili o'rganish ya'ni multilingual shaxs bo'lish o'rganuvchidan juda ko'p say-harakat, mehnat va sabr talab qiladi. Sababi inson tug'ilganidan keyin o'z ona tilini u uchun birinchi til hisoblanib bu tilda gapirish, o'ylash eshitganda, o'qiganda bemalol tushina olish odatiy holdir. Ammo ikkinchi tilda bu kabi o'rganish jarayonlari osonlik bilan kechmaydi. Shuning uchun ham til o'rgatuvchilar tomonidan chet tillarini sifatli o'rgatish va hamma yosh chegaralariga mo'ljallangan samarali o'rganish muhiti dars tashkil etishda ko'plab metodlar qo'llab ko'rilgan. Ulardan biri bo'lgan kommunikativ metod faqatgina nazariy bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallanib qolmay, amaliy bilimlarni ham oson tarzda mustahkamlaydi. Asosiy muloqot vositasi bo'lgan til nutqning kompetensiyalarini oshiradi. Kommunikativ metod esa ta'lim jarayonida hozirda o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanib kelinmoqda.

ASOSIY QISM

Ko'p yillar davomida xorijiy til uzun va zerikarli qoidalar asosida tashkil etilgan bo'lib, bu metodikada o'tilgan dars jarayoni o'quvchilarni faqat bir xillikga moslashtirib qo'ygan. O'rganuvchi o'zi o'rgangan grammatik mavzu yoki lug'atlarni amalda qo'llab, ko'proq talaffuz qilmaganiga unda nutq jarayoni umuman yoki yaxshi shakllanmagan bo'lar edi. Lekin so'zlashuv uslubidan keyin o'rganilgan har bir dars, har bir birlik gap tuzish orqali amalda qo'llab yanada mustahkamlanmoqda. Bundan tashqari bu metodning juda afzalliklari tajribalar jarayonida yanada aniqlangan.

So'zlashuv metodi orqali tashkil etilgan dars orqali o'rganuvchilarda erkin va hayajonlarsiz ko'pchilik oldida gapira olish, o'z fikrini bayon etish kabi odat shakllanadi. Ya'ni ular tilni dastlabki o'rganayotgan paytlaridan boshlab teng vaqtda so'zlashuvni ham shakllantirishadi. An'anaviy ta'lim metodlarida esa o'rganuvchi grammatikani yaxshiroq o'rganganidan keyin gapirish qismini yaxshilashga harakat qiladi. Lekin bu paytda gapirish paytida o'zi bilib yoki bilmasdan qilgan xatolaridan uyaladi va bir-ikki marotaba atrofida gilar tomonidan ogohlantirish olgach o'rganuvchida tilga bo'lgan qiziqish ham susayadi va bu holatlar uning kelasi hayotidagi oladigan bilimlari, qiziqishlari uchun salbiy ta'sir qiladi. Aksincha har bitta grammatik darsdan so'ng unga oida gaplar, matn tuzish, uni boshqalar oldida o'qib eshittirish, role-play (sahna ko'rinish) larni tashkillash darsni yanada interaktivlashtiradi.

Ushbu metodda o'rganuvchi va o'rgatuvchi orasida aniq maqsad paydo bo'ladi. Asosiy faoliyat o'rganuvchi zimmasiga yuklatiladi, o'qituvchi esa uni maqsadiga tomon yo'naltiradi. O'rganuvchidan mustaqil faol bo'lish talab qilinadi. Gapirish ijodiy qobiliyat bo'lganligi sababli o'rganuvchining o'zi qiziqishlari, fikrlashi, dunyoqarashiga asoslanib gapirishni mashq qiladi.

Metodni qo'llash davomida ishlatilgan interaktiv o'yinlar, hayotiy vaziyatlarga mo'ljallangan sahna ko'rishlari, turli xil obraz va qiyofalar o'rganishni juda qiziqarli qiladi. Xattoki til o'rganishiga qizishi past lekin o'rganishi majburiy bo'lganlar ham bu vaqtda juda faol qatnashishga harakat qilishadi. Natijada ularning nutqi yaxshilanadi, lug'at boyligi oshib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi ko'payadi.

Shu bilan birgalikda kommunikativ metodda berilgan jamoaviy ishlar o'rganuvchilardan guruh bo'lib ishlashni, jamoadoshidagi kamchiliklarni anglashga, ko'proq insonlar atrofida ishlashga moslashtiradi. Jamoaviy ishlashda ular bir-birlari bilan fikrlarni chet tilida

almashishadi, dunyoqarashlari yanada boyiydi. O'zlari bilmagan yangi so'z birikmalari, grammatik mavzularni ham nutq qilish orqali o'rganishadi va yaxshilashadi.

Kommunikativ metodning zamonaviy ta'lim tizimini yaxshilashdagi roli beqiyosdir. Sababi zamonamiz rivojlangani sari tilni puxta egallagan tajribali ishchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori. Mehnat bozorida ko'p tilni bilish doimo ustunlik qilmoqda. Bundan tashqari tilni qanchalik darajada egallaganini ko'rsatib beruvchi til sertifikatlarini olish va ularga hujjat topshirish ham o'rganuvchilar orasida odatiy holdir. Kommunikativ metoddan foydalanish aynan shunday til sertifikatlari: IELTS, CEFR, TOEFL va boshqa bir qator milliy sertifikatlardan yuqori ball to'plash orqali yaxshi natija ko'rsatishga katta foyda keltiradi. Sababi aynan usha xorijiy tilda nutqi yaxshi rivojlanayotgan o'rganuvchilar imtihonning boshqa qismlarida ham qiyinchiliklarni sezishmaydi.

Til o'rganish deganda avvalo yaxshi shakllangan ravon nutq ko'z oldimizga keladi. So'zlashuv metodini boshlash uchun esa hech qanday yosh va bilim chegarasi yo'q. Har bir o'rganuchi bu metodni o'zida qo'llash orqali nafaqat tildagi erkin gapirish, eshitish, yozish, o'qish konikmalarini shakllantiradi, balki tanqidiy fikrlashni ham mustahkamlaydi.

XULOSA

Mazkur maqoladagi berilgan fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kommunikativ metod ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishga, samarali, o'quvchilar uchun zerikarli bo'lmagan interfaol bo'lishga chorlaydigan o'qitish uslubidir. U orqali o'rganuvchilar hech qanday psixologik, ruhiy to'siqlarga uchramay, real hayotiy vaziyatlarga moslashib, erkin muloqat qilib o'rganishadi. Zamonaviy texnologik qurilmalar bilan uyg'unlashgan holda tashkil etilishi esa bu metodning foydasini yanada oshiradi.

Shuningdek talaffuzi va nutqi ravon, fikrlashida aniqlik, tanqidiylik mavjud bo'lgan o'rganuvchilar jamiyatning barcha ta'lim sifatleri moslashuvchan ishchi kadr bo'lib yetishib, kasbiy faoliyatlarida yetuklik darajasiga erishishadi. Shu tufayli ham bu metodni barcha chet tilli o'rgatish joylarida keng qamrovda qo'llash va uni yanada ommalashtirish lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Pearson Education Limited, 2007.
3. Nunan D. Language Teaching Methodology. – London: Prentice Hall International, 1995.
4. Passov E.I. Kommunikativniy metod obucheniya inostrannomu yazyku. – Moskva: Prosveshcheniye, 1991.
5. CEFR. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge University Press, 2020.
6. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
7. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
8. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007.
9. Larsen-Freeman D. Techniques and Principles in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2000.

10. Hymes D. Communicative Competence // Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972.

